

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701349**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Sharros yomg'irlar havoni tozalaydi, larzakor chaqmoqlar dilga jo'shqinlik beradi, sho'x qushlar insonga kuch-quvvat ato etadi. Berilgan gap tarkibidagi sodda yasama so'zlarning yetakchi morfemalari qaysi so'z turkumlariga mansub?  
1) ot; 2) sifat; 3) fe'l; 4) ravish; 5) taqlid so'z; 6) undov so'z  
A) 2, 3, 6 B) 1, 2, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5, 6
2. Narsaning holatini ifodalay oladigan ism asosli sodda yasama fe'llar berilgan javobni belgilang.  
A) *bo'shamoq, qotmoq, ko'paymoq*  
B) *suvsumoq, hayajonlanmoq, ikkilanmoq*  
C) *varaqlamoq, bezovtalanmoq, shodlanmoq*  
D) *yaltiramoq, sarg'aymoq, bo'shamoq*
3. Berilgan she'riy parchadagi sodda yasama so'zlardan nechtasining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?  
Bir kun ko'zlarimdan qo'chdi uyqular,  
Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular...  
Men seni esladim entikib, yonib...  
A) 4 B) 1 C) 2 D) 3
4. Berilgan gapda munosabat shakllari ta'sirida fonetik o'zgarish asosida yozilgan nechta so'z ismlar guruhiga mansub?  
O'mimdan turib uy eshigini ochsam, o'g'lim bilan o'rtog'i sovuqdan qulog'i, bumi qizarib kirib keldi.  
A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 4 ta
5. Qaysi gapda barcha yopiq bo'g'inlar faqat til undoshlari bilan tugagan?  
A) *Tursun tomida tursin.*  
B) *Eng buyuk jasorat bu - ma'naviy jasoratdir.*  
C) *Guvoh sudga ketdi, qo'shnim sutga ketdi.*  
D) *"Hamma balo tildan keladi", - deydi bobom.*
6. Tarkibida turlangan so'z qatnashmagan gaplar to'liq berilgan javobni aniqlang.  
1. Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. 2. Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi. 3. Yigit to'satdan gandarab borib tizzalab qoldi. 4. Shu payt birdan eshik sharaqlab ochildi-yu, Erto'yev kirib keldi.  
A) 1, 3, 4 B) 3, 4 C) 1, 3 D) 1, 2, 4
7. Tabiat ishlariga qo'pollik bilan aralashish tufayli paydo bo'lgan kasalliklarni farmatsevtika zavodlarida ishlangan dorilar bilan tuzatib bo'lmaydi. Ushbu gapdagi yordamchi so'z turkum(lar)iga mansub birliklar hamda ular bilan shakllangan bo'laklar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *Yordamchi so'zlar bilan shakllangan bo'laklarning barchasi kesimga bevosita tobelangan.*  
B) *Yordamchi so'zlarning barchasi sof ko'makchilar hisoblanadi.*  
C) *Gapdagi yordamchi so'zlarning barchasini kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin.*  
D) *Yordamchi so'zlar bir o'rinda hol, ikki o'rinda to'ldiruvchini shakllantirishga xizmat qilgan.*
8. Qaysi so'zlar ham ko'p ma'noli ham shakldosh so'z hisoblanadi?  
A) *chaqmoq, rasta, bardam* B) *dunyo, asl, ilik* C) *shox, tovon, es* D) *yoq, to'da, asil*
9. Unum(1) yo'q, bunim yo'q, Uyimda unim(2) yo'q, Ishimda unum(3) yo'q, Aytishga unim(4) yo'q. Ushbu parchada raqamlar bilan ko'rsatilgan so'zlardan qaysilarining yetakchi morfemalari o'zaro omonim so'zlar hisoblanadi?  
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4
10. Quyidagi gapda ma'no ko'chishining qaysi tur(lar)i qatnashgan? Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.  
A) *faqat metafora*  
B) *metonimiya, metafora*  
C) *sinekdoxa, metafora*  
D) *vazifadoshlik, metonimiya*
11. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismini ko'p qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi. Berilgan parchada fe'l(lar) necha xil nisbatda ishtirok etgan?  
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
12. Qaysi gapda fe'lining barcha vazifa shakllari ishtirok etgan?  
A) *Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, shuning uchun sha'ningizga dog' tushiradigan ish qilmang, - dedi kuyunib.*  
B) *So'rida ko'rpachani yig'ishtirib olib, mehmonlar kelguncha yakandoz to'shab, joy soldi.*  
C) *Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay kula boshladi.*  
D) *Necha kundan beri qattiq esayotgan shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi.*
13. Son turkumiga oid so'z otlashgan gaplarni aniqlang.  
1. To'qqizida bo'lmagan aql to'qsonida ham bo'lmas. 2. Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'maydi. 3. Mingta shirin nasihatdan bitta o'nak yaxshi. 4. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan.  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 4 D) 1, 4
14. Berilgan so'zlardan nechta tub ravishlar sanaladi?  
**atay, birin-ketin, bevaqt, birdan, olg'a, vaqtincha, to'satdan, u yerga, birdaniga, ekakchasiga**  
A) 4tasi B) 5tasi C) 6tasi D) 7tasi
15. Ikkala qismidagi eganing shakldoshi mavjud bo'lgan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.  
A) *Tongga yaqin tuman tushdi va atrofdagi daraxtlar ko'rinmay qoldi.*  
B) *Dekabr oyining boshida bir qor yog'di-yu, keyin havo ochildi.*  
C) *Olma ikkinchi bor gullasa, bu kuzning iliq kelishidan nishondir.*  
D) *Bu yil cho'llarda o't mo'l, chunki yomg'ir ko'p yog'di.*
16. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?  
A) *Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.*  
B) *Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'rinish ilinjida edilar.*  
C) *Shoir she'rlarida so'zni tambur torlaridek jaranglata olgan.*  
D) *Dushman turli hiyla bilan jangchilarning tinkasini quritmoqchi edi.*
17. Quyidagi berilgan qaysi gaplarda tire(lar) tushirib qoldirilgan?  
1) Bu qaromni amalga oshirishdagi birinchi qadam o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish. 2. Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlari darrov ko'rdi poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshikni to'sib, qaqqayib turardi. 3. O'lita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi shu. 4. Mingbuloq o'zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz.  
A) 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3
18. Berilgan she'riy parchada qanday munosabatli so'z birikmalari tarkibida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z uchraydi?  
Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shulasi bir mayin,  
Kel, oppog'im, kel, erkam, men seni allalayin.  
Dudog'ing guldin xushbo'y, yuzlaring undan xushbo'y,  
Kel, oppog'im, bag'rimga jajji boshginangni qo'y.  
A) *boshqaruv* B) *bitishuv* C) *bitishuv, boshqaruv* D) *moslashuv*
19. Kesim haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.  
1) gapning markazi hisoblanadi; 2) barcha bo'laklar unga bevosita bog'lanadi; 3) tasdiq yoki inkor ma'nosini ifodalaydi; 4) zamon, mayl, shaxs -son ma'nolari bilan shakllanadi  
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 2
20. Agar bu O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixini ulug'lamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Ushbu gapda faqat hokim qismi yasama so'zdan iborat bo'lgan so'z birikmalari sonini aniqlang.  
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
21. Kechagi g'amin o'yilasa obdon, Bukchayib qoldirdi bugun odamzod. Ushbu gapda ravish turkumiga oid so'zlar necha xil gap bo'lagi vazifasini bajargan?  
A) 1ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta
22. Qaysi gapda fe'lining vazifa shakllari hosil qiluvchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan nisbat qo'shimchasini olgan fe'l qatnashgan?  
A) *Qishloqdan chiqarkan, boy tog'asidan albatta xizmat so'rashni onasi uqtirgan edi.*  
B) *Tuproq uyimdan sakrab o'tgan Alijon qaytarma etagiga yopishgan changni jahl bilan qoqdi.*  
C) *Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'ildi qorong'i jarga.*  
D) *Menga shuncha yaxshilik qildingiz, necha bor meni yomon yo'ldan*

qaytardingiz

23. Yunonistonlik faylasuf Arastu o'g'lini chaqirib shu so'zlarni aytibdi: - Bolajonim, o'z umrimni ilm-u hikmatning sirlarini o'rganish yo'lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko'p tugunlarni yechdim, ammo o'limga chora yo'q ekan. Keltirilgan parchada necha o'rinda yasama so'z qo'llangan.  
A) 4 B) 3 C) 5 D) 2
24. Yaxshi bo'lg'in, hatto dushmaning oson Seni deymasin yaramas, yomon. Tanburning ovozi soz chiqib tursa, Qulog'in buramas sozchi hech qachon. She'riy parchadagi ko'makchi morfemalar haqida bildirilgan noto'g'ri fikrlarni toping.  
1) 2ta qaratqich, 2ta tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llangan; 2) 2ta buyruq-istak mayli qo'shimchasi mavjud; 3) 3ta egalik qo'shimchasi qo'llangan; 4) 3ta so'z yasovchi qo'shimcha qo'llangan.  
A) 3, 4 B) 1, 4 C) 1, 2 D) 2, 3
25. Qaysi shoir odamlarning zlzila paytidagi ruhiy holatini "Asablar tuproqqa cho'kkan edi tiz" tarzida bergan?  
A) Maqsud m Shayxzoda B) Erkin Vohidov C) Abdulla Oripov D) Shuhrat
26. Odil Yoqubov qalamiga mansub dramani aniqlang.  
A) "Larza" B) "Muqaddas" C) "Qaydasan, Moriko" D) "Chin muhabbat"
27. Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodiga tegishli bo'lmagan ma'lumotni toping.  
A) "Jahon adabiyoti" jurnalining 100ta sonini tayyorlab ulgurgan.  
B) O'zbek adabiyotshunosligida ko'p tilga olinadigan "shafqatsiz realizm" ko'rinishlarini o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek romanchiligiga olib kigan.  
C) Cho'lpon, Fitrat singari ijodkorlar haqida yozgan maqolalari katta shov-shuvga sabab bo'lgan.  
D) "Zaharxanda qahqaha", "Bir tilda gaplashaylik", "She'r ko'p, ammo shoir-chi?" maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og'izga tushgan, munozara mavzusiga aylangan.
28. "...Bog'ni kesishdi. Dilim o'rtanganin Aytsin ho'l bolish, Bog'ni kesishdi - yu, Bag'im ezishdi". Qaysi shoir o'z she'rida lirik qahramon sifatida bog'ni kesishganda yostiqni ho'llab yig'laganlarini yodga oladi?  
A) Usmon Nosir ("Bolalik")  
B) Xayriddin Saloh ("Yer va ter")  
C) Sergey Yesenin ("Singlimga xat")  
D) Mirtemir ("Qishlog'im")
29. Zavqiy hayotiga oid ma'lumot berilgan javobni belgilang.  
A) Chimyonda maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug'ullangan.  
B) Onasi Oyshabibi o'g'lida adabiyotga nisbatan ilk havaslarni uyg'otgan.  
C) Shoirning o'z o'g'li qo'li bilan tuzgan devoni uning vafotidan so'ng turmush o'rtog'i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan.  
D) Otasi Akmal taxalisi bilan ijod qilgan.
30. Alisher Navoiyning "Mehr va Suhayl" hikoyasida Mehr chohdagi bandini nima maqsadda qutqaradi?  
A) Jobir bilan jang qildirish maqsadida  
B) bandi orqali Suhaylga xabar yuborish maqsadida  
C) Suhayl ekanligini bilgani uchun  
D) otasiga xabar jo'natish maqsadida
31. Quyidagi parcha "Zarbulmasaldagi qaysi qahramonga aloqador?" "... yaxshi ko'rgan to'ppisini tez oqar suvga oqizibdi. Necha jahd bilan ololmay, nochor mahrum bo'lib, aytar erdikim: Yo'qolg'ani xo'b bo'ldi. Boshimg'a tor kelyotgan edi".  
A) Ahur qassob B) Mulla Siddiq kitob C) Eshon kalla D) Otaboy Amin
32. Hasbi hol yo'nalishidagi quyidagi misralar qaysi shoira qalamiga mansub? Yigirma yil maktab ochdim qizlarga, Hirsim baland bo'ldi doym ash'ora. O'zum bitdim mingdin ortuq g'azalni, Zikr etib o'tdim oxir azalni.

A) Dilshodi Barno B) Nodira C) Anbar Otin D) Jahon Otin Uvaysiy

33. Nasr ibn Ahmad Somoniyni beixtiyor yurtiga qaytishga majbur etgan "Mo'liyoning bo'yi bu yonga kelur" deb boshlanuvchi g'azal muallifini aniqlang.  
A) Rudakiy B) Atoiy C) Ogahiy D) Firdavsiy
34. Quyidagi qaysi misra bilan boshlanuvchi she'r muxammas janrida bitilmagan?  
A) "Kishi holimni bilmas, mehribonimdan adashganman" (Furqat)  
B) "Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman" (Turdi Farog'iy)  
C) "Ohkim behad menga javr - u jafo aylar falak" (Nodira)  
D) "Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi" (Munis)
35. Quyidagi qaysi misra bilan boshlanuvchi she'r muxammas janrida bitilmagan?  
A) "Bu kunlar boshimizda bir sahob o'lsa ajab ermas" (Zavqiy)  
B) "Emdi sendek, jono, jonon qaydadur" (Muqimiy)  
C) "Qaysi falak burjining mehri puran vorisan" (Komil Xorazmiy)  
D) "La'li jonbaxshi ngdin ayru obi hayvonni netay?" (Husayniy)
36. Turkiy va forsiy adabiyotda shohlar haqidagi asarlar, davrlar mobaynida shakllangan an'anaga ko'ra, asosan, aruzning qaysi vaznida bitilgan?  
A) mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida  
B) mutadoriki musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida  
C) mutaqoribi musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida  
D) hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida

## BIOLOGIYA

37. Qora tanali, normal qanotli (otasi kalta qanotli) oq ko'zli urg'ochi drozofila pashshasi qanday tipdagi gametalarni hosil qilishi mumkin?  
A)  $aBX^d$ ,  $aBX^D$   
B)  $aBX^d$ ,  $abX^d$   
C)  $ABX^d$ ,  $abX^d$   
D)  $aBX^d$ ,  $abX^D$
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyli o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.  
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning necha foizini genotip jihatdan ota-onadan farq qiluvchi organizmlar tashkil qiladi.  
A) 75 B) 25 C) 37,5 D) 31,25
40. Xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi (a) va DNK bo'lagi genomning ma'lum joylarga kirishi (b) qanday nomlanadi?  
A) a-inseriya; b-inversiya  
B) a-inversiya; b-inseriya  
C) a-deletsiya; b-duplikatsiya  
D) a-inseriya; b-ekssiziya
41. O'simlik hujayrasida energetik almashinuvning ikkinchi bosqich reaksiyalari... sodir bo'ladi.  
1) anaerob sharoitda; 2) kislorod sarfi bilan; 3) glyukozaning parchalanish hisobiga; 4) sut kislotaning parchalanish hisobiga; 5) karbonat anhidridning ajralishi bilan; 6) sut kislotaning hosil bo'lishi bilan; 7) CO<sub>2</sub> ning sarf bo'lishi bilan  
A) 1,3,5 B) 2,6 C) 2,5,7 D) 1,4
42. Ulotriksning jinsiy ko'payish jarayonida 512 ta gameta hosil bo'lib, uning 25% idan zigota, zigotaning 50% idan ulotriks hosil bo'lsa, yangi hosil bo'lgan ulotriks iplarining sonini toping.  
A) 64 B) 128 C) 32 D) 16
43. Kojan bilan birga bir sinfga (a) va yovvoyi cho'chqa bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
A) a-gavial, kashalot, yexidna; b-zebra, tarpan, zubr  
B) a-gornostoy, sayg'oq, o'rdakburun; b-jayron, qulon, arxar

- C) *a-kanna, suv ayrig'i, qiloyoq; b-zubr, sayg'oq, begemot*  
D) *a-kuropatka, yelik, yexidna; b-karkidon, begemot, tapir*
44. Xantoria haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.  
A) *avtotrof oziqlanadi*  
B) *tarkibida murein uchraydi*  
C) *xitin qobiqli hujayralari bor*  
D) *vegetativ usulda ko'payadi*
45. Peshonasi past, qosh usti suyagi bo'rtib chiqqan, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi rivojlanmagan, miyasining hajmi 850-1220 sm<sup>3</sup> bo'lgan. Ushbu ta'rif odamning qaysi ajdodlariga mansub?  
A) *kromanyon* B) *neandertal* C) *pitekanthrop* D) *sinantrop*
46. Organizm (a) va biosfera (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.  
1) lipa changdonida arxeosporaning hosil bo'lishi; 2) itbaliqning metamorfozi; 3) uglerodning biogen migratsiyasi; 4) yadrochada ribosomalarning shakllanishi; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovul kenja turining paydo bo'lishi; 7) o'tloqda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati  
A) *a-2,5; b-3*  
B) *a-1,6; b-3*  
C) *a-5,7; b-3*  
D) *a-2,4,6; b-7*
47. Gidrofitt (a) kserofitt (b) ekologik guruhlariga mansub yuksak o'simliklarni aniqlang.  
1) ro'vak; 2) suv yong'og'i; 3) sarsazan; 4) iloq; 5) suv qirqqulog'i; 6) buyurg'un; 7) laminariya; 8) qamish  
A) *a-4,8; b-3,6* B) *a-7,8; b-2,5* C) *a-1,2; b-3,8* D) *a-2,5; b-4,6*
48. Kumulyativ polimeriya epistaz irsiylanishdan farq qilib ...  
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri hisoblanadi;  
2) digeterozigota duragaylarning avlodida 5 xil fenotipik sinf hosil bo'ladi;  
3) belgining rivojlanishida ikkita gen qatnashib, ulardan biri asosiy gen, ikkinchisi to'ldiruvchi hisoblanadi; 4) belgining rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 5) bir belgining rivojlanishi bir necha gen nazoratida bo'ladi;  
A) *3,4* B) *2,4* C) *1,2* D) *4,5*
49. Odamning orqa miyasiga xos bo'lgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) *Orqa miyani o'rab turuvchi pardaning ichki qismi qattiq, ichki o'rtqa qavaqti o'rgimchak to'rsimon, tashqi qavati yumshoq parda deyilib, o'rtqa va ichki parda orasida orqa miya suyuqligi bo'ladi.*  
B) *Orqa miya yuqori qismining dastlabki 8 ta segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lining kafi, barmoqlar terisini va qo'lining tashqi yuzasi terisi va muskullar funksiyasini ta'minlaydi*  
C) *Orqa miyani ustidan o'rab turuvchi pardalarning yallig'lanishi meningit deb ataladi va bu kasallikda bemorda hushini yo'qotish, tirishish, belgilari yuzaga keladi.*  
D) *Orqa miyadan chiquvchi simpatik nerv tolalarining birinchi qismi umurtqa pog'onasi atrofida joylashgan nerv tugunlarida tugaydi*
50. Odam yuragiga hos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.  
A) *o'ng qorincha qisqarganda qon o'pka arteriyasiga chiqadi*  
B) *chap qorincha qisqarganda qon o'pka venasiga chiqadi*  
C) *o'ng bo'lmacha uch tavaqali klapan ochiladi*  
D) *chap bo'lmacha qisqarganda ikki tavaqali klapan ochiladi*
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi  
A) *1,4,5* B) *1,5* C) *2,6* D) *3,4,7*
52. Odam organizmida A vitaminining yetishmasligi natijasida ...  
A) *enterit kasalligi kelib chiqadi, epiteliy to'qimasining yangilanishi buziladi*  
B) *milklar qonaydi, tishlar to'kiladi, traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi*  
C) *nerv tolalari falajlanadi, bronxlarning shilliq pardasi yallig'lanadi*  
D) *qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi, nerv tolalari falajlanadi*
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar*
- issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.*  
B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*  
C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.*  
D) *Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Metamorfoz jarayonida g'umbaklik bosqichini o'taydigan hasharotlar turkumlarini aniqlang.  
A) *ikki qanotlilar, pardaqanotlilar, tangachaqanotlilar, chumolilar*  
B) *qo'ng'izlar, arilar, yaydoqchilar, kapalaklar*  
C) *ikki qanotlilar, pardaqanotlilar, tangachaqanotlilar, burgalar*  
D) *qo'ng'izlar, arilar, kapalaklar, pashshalar, chumolilar*
55. Zavar keltiruvchi hasharotlar turkumlari bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) hasva; 2) olma qurti; 3) kuya; 4) chigirtka; 5) bezgak paraziti; 6) so'na; 7) oq chumoli; 8) kana; 9) iskabtopar; 10) trixogramma;  
a- to'g'riqanotlilar; b- qandalalar; c-tangachaqanotlilar; d-ikki qanotlilar; e-termitlar  
A) *b-1; d-6; e-8* B) *a-4; b-1; c-3; d-9* C) *a-4; c-2; d-9,10; e-7* D) *a-4; b-1; d-5; e-7*
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.  
1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
A) *1,4* B) *3,5,6* C) *2,4* D) *1,2,5*
57. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib yuruvchilar (b), suvda ham quruqlikda yashovchilar (c) sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon; 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra  
A) *a-2,3,7; b-1,5,9; c-4,6,8*  
B) *a-1,3,7; b-2,5,6; c-4,8,9*  
C) *a-2,5,6 b-4,8,9; c-1,3,7*  
D) *a-1,5,7; b-3,4,6; c-2,8,9*
58. Yirtqich umurtqasiz (a) va o'txo'r umurtqali (b) hayvonlarni aniqlang.  
1) malla shomshapalak; 2) zlatka; 3) falanga; 4) tipratikan; 5) aureliya; 6) tillako'z; 7) bizon; 8) qaldirg'och; 9) hasva qandalasi; 10) karkidon  
A) *a- 3, 9; b-4, 10*  
B) *a- 5, 6; b- 7, 10*  
C) *a- 3, 5; b-1, 8*  
D) *a- 2, 6; b- 4, 8*
59. Prokariot hujayraga xos bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlang.  
1) tugunak bakteriyasida membrana sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi; 2) nostokning sharsimon hujayrasida ribosoma, halqasimon DNK va mezosoma mavjud; 3) xrokkok sentroplazmasidagi xlorofill birlamchi uglevod sintezini amalga oshiradi; 4) gommooz qo'zg'atuvchisi hujayrasida fotosintez membranalarida amalga oshiradi; 5) pichan bakteriyasida irsiy axborot sitoplazmadagi membrana bilan o'ralgan halqasimon polinukleotidda joylashgan; 6) prokariot hujayrada zaxira moddalar sifatida polisaxaridlar va yog'lar to'planadi  
A) *1,6* B) *1,3* C) *3,5* D) *2,4*
60. Xloroplastlarga ega eukariot organizmlarga zarar keltiruvchi xloroplastlarga ega bo'lmagan eukariot organizmlarni aniqlang.  
1) gommooz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5) leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi  
A) *1,4* B) *2,5* C) *6,7* D) *3,6*
61. Shimpanze somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta;  
2) anafazada xromosomalar soni 96 ta;  
3) metafazada ikki xromatidali autosoma xromosomalar soni 46 ta;  
4) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G<sub>1</sub> davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta  
A) *1,4* B) *3,5* C) *4,5* D) *2,6*
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.

- 1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"  
A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. Reduplikatsiya (I) va denaturatsiya (II) uchun mos keluvchi ta'riflarni juftlang.  
a) oqsillarning tabiiy holatini yo'qotishi; b) DNKning ikki hissa ortishi; c) xromosoma ayrim qismlarining ortishi; d) xromosoma o'rtasidagi qismining ajralishi  
A) I-d; II-c  
B) I-c; II-b  
C) I-b; II-a  
D) I-b; II-d
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?  
A) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva  
B) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva  
C) a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyshiq gul; c-quruq meva, pallalari orasida to'sig'i yo'q  
D) a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva, pallalari orasida to'sig'i bor
65. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligini to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva  
1) qozidastor; 2) Namangan; 3) Zarafshon; 4) gultish; 5) "Samarqand-3"; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) Namangan-34  
A) a-3; b-1,4,6; c-8; d-7  
B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9  
C) a-1; b-4,5; c-8; d-7  
D) a-3; c-8; d-6; e-9
66. Qo'shilgan gultobarglari urug'chi va changchilarini ustidan qalpoqqa o'xshab qoplab turadigan o'simlik navlarini aniqlang.  
1) Zarg'aldoq; 2) Vatan; 3) Farxod; 4) Nimrang; 5) Gultish; 6) Samarqand; 7) Buvaki; 8) Zarmiton; 9) Obidov; 10) Kattaqo'rg'on.  
A) 1,2,3 B) 5,7,10 C) 4,6,9 D) 4,8,9
67. Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchali (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?  
1) yantoq; 2) tok; 3) g'o'za; 4) partenotsissus; 5) burchoq; 6) liftok; 7) shirinmiya; 8) olma  
A) a-6,8; b-1,5,7  
B) a-1,2; b-4,5,7  
C) a-2,3,8; b-1,4,5,7  
D) a-2,4,6; b-5,7
68. Zuxrasoch o'simligining sporadan rivojlanuvchi bo'g'inida qanday qismlar hosil bo'ladi?  
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoniy; 6) anteridy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gameta  
A) 4,6,10 B) 1,2,3 C) 5,6,7 D) 7,8,9
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) Tuxum xujayrasi urug'chili qubbalaridagi arxegoniyda yetiladi  
B) Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi  
C) Hayotiy shakli daraxt, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'i qubbalarida ochiq holda yetiladi  
D) Barglari och yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkita dan bo'lib joylashadi
70. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?  
1) to'garak chuvalchanglar; 2) qisqichbaqasimonlar; 3) ayyiqsimonlar; 4) o'rgimchaklar; 5) qo'lqanotlilar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar; 8) terili toshbaqa  
A) 1,2,7 B) 1,3,4 C) 3,5,8 D) 3,6,7
71. Hindomalay biogeografik viloyatiga mansub sutemizuvchi hayvonlarni aniqlang.  
1) orangutan; 2) xongul; 3) gibbon; 4) kapachi; 5) maral; 6) kanna; 7) bambuk ayig'i; 8) gorilla; 9) skuns; 10) iguana  
A) 1,3,7 B) 5,8,10 C) 2,4,6 D) 3,7,9
72. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?  
1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun  
A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7

## KIMYO

73. 0,2 mol natriy peroksidni regeneratsiya qilish uchun tarkibida hajm jihatdan 2% CO<sub>2</sub> tutgan havodan qancha hajm (litrlar, n.sh) zarur?  
A) 224 B) 896 C) 448 D) 112
74. Viniliden ftorid molekulasida 1-uglerod atomining oksidlanish darajasini aniqlang.  
A) +1 B) +2 C) -2 D) -1
75. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> → S → H<sub>2</sub>S qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?  
A) dissotsiyalanish darajasi  
B) qaytaruvchilik  
C) oksidlovchilik  
D) suvda eruvchanligi
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 48,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislotasi eritmasida gidrolizlanganda 67 g modda hosil bo'ladi. Aminokislota ni aniqlang.  
A) valin B) alanin C) glitsin D) leysin
77. 17,8 g α-aminokislota 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislota ni toping.  
A) α-amino 2- metilpropan kislotasi  
B) glitsin  
C) β-aminopropion kislotasi  
D) α-aminopropion kislotasi
78. Saxarozaning gidroliziga uchirilgandan uning massasi 3,6 grammga ortdi. Gidroliz mahsulotlari nikel katalizatori ishtirokida vodorod bilan qaytarildi. Olingan mahsulot massasini (g) aniqlang.  
A) 72,8 B) 36,4 C) 44 D) 18,2
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi propanol massasini (g) aniqlang.  
A) 12 B) 48 C) 24 D) 60
80. Tarkibida 1 ta sp<sup>3</sup>-sp<sup>2</sup> va 9 ta sp<sup>3</sup>-s bog' tutgan benzol gomolog(lar)ni nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)  
A) 4 B) 10 C) 6 D) 8
81. Quyidagi qaysi moddalar suvli eritmada kuchsiz elektrolit hisoblanadi?  
A) kumush nitrat, xlorid kislotasi  
B) kaliy dixromat, ammoniy gidrokarbonat  
C) bariy sulfid, natriy gidrosulfid  
D) ftorid kislotasi, ammiak gidrat
82. Glitserindan 1,2,3-tribrompropan (A) (η=40%), A dan 2,3-dibrompropan (B) (η=80%), B dan allen (η=100%) olinganda oxirgi mahsulot massasi boshlang'ich modda massasidan 19,8 g ga kam bo'lsa, glitserindan necha mol olingan?  
A) 0,20 B) 0,30 C) 0,15 D) 0,25
83. Qaysi alkan izomerlari sonining uning tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari soni yig'indisiga nisbati 0,25:1 ga teng?  
A) C<sub>8</sub>H<sub>18</sub>  
B) C<sub>7</sub>H<sub>16</sub>  
C) C<sub>9</sub>H<sub>20</sub>  
D) C<sub>6</sub>H<sub>14</sub>
84. Mol nisbatlari 1:3:2 bo'lgan C, Si, Cu dan iborat aralashmani to'la eritish uchun avvaliga 98% li sulfat kislotadan 450 g, so'ngra 40% li NaOH eritmasidan X g sarflandi. X ni aniqlang.  
A) 480 B) 540 C) 360 D) 450

85. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi?  
 $\text{CH}_4 \rightarrow \text{HF} \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{O}$  a) ortadi; b) kamayadi  
 A) 1-b; 2-b; 3-b B) 1-a; 2-b; 3-b C) 1-a; 2-b; 3-a D) 1-b; 2-a; 3-a
86. 0,25 mol miqdordan olingan  $\text{XY}_2$  va  $\text{AXY}_3$  birikmalarda mos ravishda  $5,75 \cdot N_A$  va  $8 \cdot N_A$  tadana elektron bo'lsa, X ni toping.  
 X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.  
 A) F B) C C) N D) O
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi.  
 Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
 A) 1/9; 5/9; 1/3  
 B) 3/10; 3/10; 2/5  
 C) 1/6; 1/2; 1/3  
 D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Noma'lum elementning oxirgi elektronining kvant soni qiymati  $n=3$ ;  $l=2$ ;  $m_l=x$ ;  $m_s=-1/2$ . Agar shu qiymatlar yig'indisi 3,5 ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.  
 A) Ni B) Sc C) Ti D) Co
89. 0,3 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 2,6 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
 A) 1:2 B) 0,5:0,25 C) 1:1 D) 2:1,5
90. Qaysi molekula tarkibida 18 ta  $\sigma$ - va 6 ta  $\pi$ -bog'lar mavjud?  
 A) alyuminiy nitrat  
 B) alyuminiy sulfat  
 C) kalsiy fosfat  
 D) kaliy karbonat
91. Temperatura koeffitsiyentlari 2 va 4 bo'lgan ikkita reaksiyaning boshlang'ich temperaturalari tegishli ravishda  $30^\circ\text{C}$  va  $20^\circ\text{C}$  ga teng. Qanday temperaturada ( $^\circ\text{C}$ ) ikkinchi reaksiyaning tezligi birinчисinikidan 8 marta katta bo'ladi?  
 A) 60 B) 50 C) 40 D) 30
92. 400 g natriy sulfat eritmasiga tegishli miqdorda 20% li  $\text{BaCl}_2$  qo'shilganda hosil bo'lgan eritmaning massasi dastlabki natriy sulfat eritmasidan 322,8 g ko'p bo'ldi. Natriy sulfat eritmasining konsentratsiyasi (%) aniqlang.  
 A) 71 B) 42,6 C) 28,4 D) 14,2
93. Molyar konsentratsiyalari nisbati 2:1 bo'lgan sulfat va xlorid kislota eritmalarini to'la neytrallash uchun 200 g 28% li KOH eritmasi sarflandi. Reaksiyaga kirishgan sulfat kislota massasini (g) aniqlang.  
 A) 39,2 B) 7,3 C) 98 D) 49
94. 0,4 mol  $\text{X}(\text{NO}_3)_3$  tuzi suvda eritilishidan olingan eritmada jami ion va molekular soni  $1,3 \cdot N_A$  dona bo'lsa va tuzning dissotsiyanlashidan olingan  $\text{X}^{3+}$  kationining massasi 15,6 g ga teng bo'lsa, noma'lum metallni aniqlang. (tuzning gidrolizlanishini va suvning dissotsiyanlashini hisobga olmang)  
 A) Cr B) Mn C) Fe D) Al
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari OH<sup>-</sup> ionlaridan  $10^2$  marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
 A) 4 B) 9 C) 5 D) 8
96. 7,2 g metal kislotadan 6,72 litr (n.sh) vodorod siqib chiqarsa, 9,6 g metal qanday massadagi (g)  $\text{Fe}^{3+}$  ni siqib chiqaradi.  
 A) 5,6 B) 28 C) 15 D) 11,2
97.  $\text{X}_2\text{YCl}_2 + 2\text{HCl} \rightarrow 2\text{XCl}_2 + \text{H}_2\text{Y}$  reaksiya bo'yicha 67,5 g noma'lum xlorli moddadan 95 g  $\text{XCl}_2$  olingan bo'lsa, hosil bo'lgan  $\text{H}_2\text{Y}$  moddaning massasini (g) aniqlang. [ $\text{Ar}(\text{X})$ ;  $\text{Ar}(\text{Y})=3:2$ ]  
 A) 3,6 B) 4,5 C) 6,8 D) 9,0
98. Bir metal tuzining suvdagi eritmasi orqali 4 soat davomida 2,68 amper tok kuchi bilan o'tkazilsa, 8,4 g metal ajralib chiqadi. Tokka nisbatan unum 75% bo'lsa, metallning kimyoviy ekvivalentini aniqlang.  
 A) 32 B) 29 C) 26 D) 28
99.  $\text{Li}_2\text{O}$  ning suv bilan reaksiyasi natijasida LiOH hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan ishqorning massasi oksid massasidan 1,28 marta ko'p bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.  
 A) 65 B) 80 C) 95 D) 75
100. Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat 0,8 mol aralashma (mol nisbati 1:0,6) qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nay 320 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlangan?  
 A) 60 B) 50 C) 40 D) 80
101. Furanga  $300^\circ\text{C}$  va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  katalizatori ishtirokida 33,6 litr (n.sh)  $\text{NH}_3$  ( $\eta=75\%$ ) qo'shildi. Olingan mahsulotga ishqoriy muhitda yod ta'sir ettirilganda olingan yodolning ( $\eta=80\%$ ) massasini (g) aniqlang.  
 A) 320,5 B) 425,6 C) 513,9 D) 252,8
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.  
 A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103.  $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + z\text{CO}_2$  ifoda qanday ma'noni anglatadi?  
 A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi  
 B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi  
 C)  $\text{MgCO}_3$  tarkibida qo'shimchalar borligini  
 D) reaksiyaning qaytarligini
104. Noma'lum gazning  $\text{CO}_2$  bilan aralashmasida uning massa ulushi 17,5%, hajmiy ulushi esa 25% ga teng bo'lsa, noma'lum gazni aniqlang.  
 A)  $\text{N}_2$   
 B) Ne  
 C)  $\text{C}_2\text{H}_2$   
 D)  $\text{CH}_4$
105. 10,96 g  $\text{Ca}_3\text{N}_2$  va  $\text{CaH}_2$  dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan  $\text{CaCl}_2$  ning miqdorini (mol) hisoblang.  
 A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.  
 1)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ; 2)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ; 3)  $\text{CH}_3\text{COONH}_4$ ; 4)  $\text{NaNO}_2$ ; 5)  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ ; 6)  $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$   
 A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.  
 A) buten B) etilen C) penten D) propen
108.  $\text{C}_3\text{H}_x$  tarkibli uglevodorod yonganda reaksiyaga kirishuvchi va hosil bo'luvchi moddalarning miqdorlari (mol) teng bo'lsa, x ning qiymati nechaga teng bo'ladi?  
 A) 2 B) 4 C) 6 D) 8